

Date: 9th February-2026

OILADA, MAXALLADA G'OYAVIY TA'SIR KO'RSATISH USLUBLARIDAN
FOYDALANISHNING XOZIRGI AXVOLI VA UNING TAKOMILLASHTIRISH
MASALASI

Obidjonov Omadbek

+998 993998421

NamDPI magistranti

omadbekobidjonov66@gmail.com

Abstrakt: Ushbu maqola kishilarning jamiyatdagi mavjud g'oyalarga faol munosabat, faol hayotiy pozitsiyada tarbiyalash hozirgi strategik dasturlarning yana bir muhim maqsadi ekanligi haqida ma'lumotlarni yoritadi. Shuningdek, hozirgi g'oyaviy tarbiya jarayonida kishilarda yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor berilganligi va insonlarda mafkuraviy immunitetni qanday shakllantirish usul va uslublari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Ma'naviy tarbiya, Ommaviy axborot vositalari, Dunyoqarash, Siyosiy ong, Huquqiy madaniyat, Mafkuraviy immunitet.

G'oyaviy tarbiyaning maqsadi. Har qanday mafkuraviy tarbiyaning maqsadi-jamiyatning har bir a'zosi va ular timsolida har bir ijtimoiy qatlam, guruhning tarbiyaviy darajasini ta'minlashdir. Bu pirovard natijada o'sha jamiyat rivojiga turtki beruvchi ilg'or g'oyalarning har bir fuqaro tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilishini, uning tafakkur va fikrlash tarziga aylantirilishini ta'minlaydi. Shu ma'noda, milliy istiqlol mafkurasi O'zbekistonda yashab, ijod qilayotgan har bir fuqaro bugungi va kelgusidagi manfaatlarini ifodalovchi eng sog'lom topishi lozim. Bu jihat mafkuraviy tarbiyaning bosh xususiyatlaridan biridir. Mafkuraviy tarbiya eng avvalo yuksak e'tiqod iymon, Vatan va xalq oldidagi mas'uliyat, vatanparvarlik, fidoiylik kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi. Yoshlarni g'oyaviy tarbiyalash. Sog'lom g'oyalar tarbiyasi yuksak dunyoqarash va e'tiqod tarbiyasini anglatadi. Dunyoqarash – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvur va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni jamiyatda o'zligini saqlagan holda munosib o'rin egallashga chorlaydi. Mustaqillik yillarida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyat va an'analarga muhabbatni, o'z yaqinlariga mehribonlikni tanlagan yo'li- kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash va yangicha tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqod mahsulidir.

Bunda quyidagilar muhim rol o'ynaydi Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekiston xalqining tub manfaatlarini, asriy orzu-umidlari, ezgu niyatlari, buyuk maqsadlarini ifoda etib, xalqning o'z maqsad-muddaolariga erishish uchun ma'naviy–ruhiy quvvat bo'ladigan poydevordir. Bu jarayon jamiyat a'zolarining tub manfaatlarini ko'zda tutadi, binobarin,



Date: 9th February-2026

har bir fuqaroni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash shu yurtning farzandlari uchun muqaddas burchdir¹.

Ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy muhit. Yoshlarda sog'lom e'tiqod va yuksak dunyoqarashning shakllanishi uchun ma'lum muhit ham zarur. O'zbekistonda bu borada ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. 1-Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq milliy qadriyatlarimizni tiklash, tariximizni xolis va chuqur o'rganish, buyuk ajdodlarimiz xotirasini yod etish boy ilmiy-adabiy merosini o'rganish, xalq ma'naviyatini yuksaltirish milliy siyosatimizning ustivor yo'naltirishlaridan biriga aylanadi. Ijtimoiy va siyosiy institutlar davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, iqtidorli yoshlarni qo'llab -quvvatlovchi jamg'armalarning tashkil etilishi o'ziga, xos ijtimoiy muhitni shakllantirdi. Bu esa o'z navbatida yoshlarning buyuk kelajak bunyodkori bo'lib voyaga etishda muhim o'rin tutmoqda. Siyosiy ong va huquqiy madaniyatning o'sishida siyosiy partiyalarning o'rni va ahamiyati katta. Ular o'z faoliyati bilan fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etish g'oyasining amalga oshishiga xizmat qiladi.

O'zbekistondagi har bir partiya o'z dasturiy maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun huquqiy asos va qonuniy kafolatlarga ega. Fuqarolar uchun qaysi siyosiy partiyaning qarashlariga qo'shilish yoki qo'shilmaslik ixtiyoriy bo'lib, bunday erkinlik yoshlarni fikrlashga o'zicha mustaqil yo'l tanlashga xizmat qiladi. Har bir partiyaning o'z dasturiy g'oyalarini zayotga tatbiq etish jarayonida milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillariga amal qilishi hayotning bosh mezonidir. Chunki xalq manfaatlari, istiqlol g'oyalari, qaysi siyosiy va mafkuraviy kuchga mansubligidan qat'i nazar, barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddasdir. Bu aslida tom ma'nodagi siyosiy madaniyatning begisidir.

Fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish chinakam demokratik fuqarolik jamiyati qurishning muhim omili. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, shaxsning xuquqiy ongi yuksak, bilimi etarli bo'lishi, lekin unda xuquqiy madaniyat etishmasligi, u fuqaro sifatida o'z xalqi va Vatani oldiga burch va mas'uliyatini teran anglamasligi mumkin. Shuning uchun ham fuqarolar, ayniqsa, yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish mafkuraviy tarbiyaning muhim shartidir.

Huquqiy madaniyatni shakllantirish omillari quyidagilardir:

- 1.huquqiy madaniyatiga oid ommabop adabiyotlar.
- 2.ta'lim muassasalarida huquqiy madaniyatga oid maxsus o'quv kurslari.
- 3.ijtimoiy muloqotning huquqiy tamoyillari mavzuiga oid tadbirlar.
- 4.mustaqillikning inson manfaatlariga qaratilgan huquqiy asoslarini keng xalq ommasi orasida targ'ib etish va boshqalar.

Ommaviy axborot vositalari orqali g'oyaviy ta'sir ko'rsatish. Ommaviy axborot vositalari eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasidir. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy

¹ Milliy g'oya nazariy manbalar. Xrestomatiya. T.: «Akademiya», 2007.



Date: 9th February-2026



axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'ib-tashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari doimo demokratiya va so'z erkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib kelgan. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi. Xayotiylik - bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga quyilayotgan asosiy talab. Berilayotgan axborotlarning asosan yutuqlarni ko'rsatish, maqtovlardan iborat bo'lishi targ'ibotga qanchalik foydali yoki zararli ekanini chamalab ko'rish lozim. Hayot bor ekan, muammolar, kamchiliklar, nuqsonlar bulaverishi tabiiy Bu - isbot talab qilmaydigan aksioma. Shunday ekan, muammolarning mavjudligiga fojea sifatida emas, odatdagi narsa deb qarashga o'rganish kerak. Ularning borligini ko'rib, uzini ko'pmaganlikka olish bilan faqat zarar keltirishi mumkin. Demak muammolarni o'z vaqtida tan olish, ularni hal qilishga kirishish lozim. Ta'kidlash joizki, targ'ibotning negizida faqatgina g'oyaga ishonch emas, g'oyani targ'ib qilayotgan insonga ishonch ham yotadi. Shu bois, maqtash targ'ibotning yagona va hatto eng to'g'ri usuli ham emas. Demak mafkurani hayotni faqat maqtash, uni benuqson tasvirlash orqali targ'ib qilish mumkin emas².

G'arbda ommaviy axborot vositalariga qo'pol bulsa ham jamiyat manfaatlarini "qo'riqllovchi kuppak", deb nisbat beradilar. Yetuk demokratik davlatlarda ular jamiyatning "kuzlari", "quloqlari" vazifasini bajaradilar. Ogohlantiruvchi tizim sifatida ular jamiyatdagi illatlardan xabar beruvchi, muammolarni dadil kutarib chiqib, ularning turli echimlarini taklif qiluvchi qudratli kuchga aylangan. Ta'kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari faoliyatining plyuralizm tamoyili asosiga qurilishi demokratiyaning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Buning uchun qapamaqarshi nuqtai nazarlardan iborat bulgan dasturlarni yaratish, muqobil fikrlar to'qnashuviga erishish lozim. Shundagina ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish va rag'batlantirishga qodir bo'ladi. Biz demokratiyani qanday tushunsak, ommaviy axborot vositalariga ham shunday vazifalarni yuklaymiz. Biz demokratiyani mustaqillik erkinlik va mas'uliyat deb tushunar ekanmiz, ommaviy axborot vositalaridan ham mustaqillik, erkinlik va mas'uliyatni kutamiz. Demak, jurnalistlar bu tushunchalarini anglashi, ularga ehtiyoj sezishi, ularni qadplashi, ulardan foydalana bilishi va ular uchun kurashishi zarur.

Ommaviy axborot vositalari orqali milliy istiqlol g'oyasini singdirishning yana bir muhim jihati mavjud. Bu jihat - axborot terroriga, mafkuraviy tahdidlarga munosib javob berish, ma'naviy-mafkuraviy jihatdan xalqimizni tobe etishga intilishlarning payini kesish va o'zbekiston fuqarolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq Ommaviy axborot vositalarining ta'sir kuchini kursatadigan shunday bir gap bor "har qanday puch g'oya, uydirma haftasiga uch martadan turt yil davomida takrorlansa - "haqiqat" tayyor buladi, odamlar unga chippachin ishonadilar". Oxirgi paytlarda informatsion hurujlarning tez-tez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabatning uzgarganligidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Bu qurol - axborotdir. Bunday qurol yordamida olib boriladigan informatsion urushlarda insonning ongi va qalbi nishonga olinadi. Garchi u

² Milliy istiqlol g'oyasi. -T.: Akademiya, 2005. B 220-221.

Date: 9th February-2026



daydi o'q singari insonni jismonan yo'q qila olmasa-da, uning qo'poruvchilik kuchi, keltiradigan talofotlari har qanday ommaviy qirg'in qurolinikidan kam emas. Chunki bu qurol yordamida onga berilgan zarbalar kishini adashtiradi, uni uz manfaatlariga zid harakat qilishga undaydi va Demak insonni boshqarish, uning ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi. Aslida, axborot maqsadga erishishning eng arzon vositasi ham sanaladi. Haqiqatan ham, informatsion hurujlar uyushtirish uchun u qadar ko'p mehnat, u qadar ko'p harakat, u qadap ko'r harajat talab etilmaydi. Garchi bunday mafkuraviy ekspansiya otishmalar va qon to'kishlarni keltirib chiqarmasa-da, milliy o'zlikni anglashni zaiflashtirish evaziga tanazzulga olib keladi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda shunday informatsion qo'poruvchilikdan maqsad - mamlakatimiz aholisiga axborot orqali va mafkuraviy yo'l bilan tazyiq o'tkazish, jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirishga intilishdan iborat. "Milliy istiqlool g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasidagi ba'zi fikrlar ham bugungi hurujlarning maqsadini oydinlashtiradi. Ushbu risolada aytilishicha, geopolitik maqsadlar - davlatning o'zga qududlarda o'z mavqei va ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan siyosatdir. Ochig'i, bu ta'rif ayrim ommaviy axborot vositalarining faoliyati nimaga yo'naltirilganligini fosh etib qo'ymoqda.

Yirik siyosatchilardan biri Buyuk Britaniya sobiq Bosh vaziri Margaret Tetcher "Ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun kislorod vazifasini utaydi", degan. Bu gapning mag'zini chaqqan odam "ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun havodek zarur ekan", degan xulosaga keladi. Bir qarashda bu fikr mantiqsizday tuyuladi. Chuqurroq o'ylab ko'rsak-chi? Aslida, terrorchilar bir qancha insonlarni shafqatsizlik bilan o'ldirish orqali millionlarda qo'pquv va dahshat uyg'otishga intiladilar. Demak ularning maqcadlari - uldirish emas, jamoatchilikka kuchli ta'sir qilishdir. Taassufki, ba'zi ommaviy axborot vositalari o'zlari bilmagan holda terrorizmning buzg'unchilik qo'poruvchilik ta'sirini yanada oshirishga "xizmat" qilib qo'yadilar. Ularning terror oqibatlarini haqidagi vaqimali axborotlari insonlardagi qurquvni, daqshatni, himoyasizlik hissini yanada kuchaytirib yuboradi. Bu kabi axborotlarga qarshi aksil targ'ibotni uyushtirish zarurati to'g'iladi.

Ma'daniy- ma'rifiy muassasalar g'oyaviy tarbiya maskani Odamlarga mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni hayotiy faktlar orqali sodda va lo'nda qilib tushuntirish, istibdod asoratlarini tarixiy dalillar asosida fosh etish milliy istiqlool g'oyasini kishilar ongiga singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillarini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish birinchi navbatda rahbar qadrlar, ziyolilar, ommaviy axborot vositalari xodimlarining muhim vazifasi, fuqarolik burchidir. Milliy istiqlool g'oyasiga sadoqat, kasbiy mahorat, keng ommani ishontirish va safarbar etish qobiliyati-kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yishda asosiy mezon bo'lmog'i lozim. Milliy mafkura masalalariga loqaydlik ayrim rahbar kadrlar o'rtasida umummilliy, manfaatlarimizga butunlay yot g'oyalarning, korupsiya, qarindosh-urug'chilik singari illatlarning kuchayishiga olib keladi. Mafkuraviy targ'ibot ishlarining muvaffaqiyatini belgilaydigan shunday hayotiy qonuniyat bor: boshqalarni bir g'oyaga ishontirmoq uchun, avvalo unga o'zing yurakdan ishonishing, boshqalarni yondirmoq

Date: 9th February-2026

uchun o'zing yonishing, boshqalarni g'aflat uyqusidan uyg'otmoq uchun o'zing uyg'oq va bedor bo'lishning shart! Milliy g'oyaning xalqparvar, taraqqiyparvar ekanligiga bo'lgan ishonch kundalik hayot sinovlaridan o'tsagina so'z va ish birligiga erishilsagina bu g'oya mustahkam e'tiqodga aylanadi. E'tiqod ustuvor erda chinakam insoniy hayot bo'ladi: e'tiqod uchun, ilg'or g'oya tantanasi uchun kurash jarayonida inson shaxsi shakllanadi: u bunyodkor kuchga aylanadi³.

Kishilarni ma'naviy-ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash. Mafkura milliy taraqqiyotning eng og'ir murakkab davrida, ayniqsa, bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan yangisiga o'tish jarayonida keng xalq ommasini ma'naviy –ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi, ularda kelajakka ishonch tuyg'ularini uyg'otishga xizmat qiladi. Ana shu sababdan ham chinakam milliy mafkura bo'lgan istiqbol g'oyasi istiqbolga umid bilan qarashga da'vat etadi. Unda xalq fantaziyasi, orzu-umidlarining qay darajada aks etishi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, to'q, farovon va baxtli hayot qurish, ijtimoiy adolatni qaror toptirish, millatlararo totuvlik, tinchlik, do'stlik er yuzasidan barcha xalqlarning azaliy orzusidir. Demak, milliy istiqbol mafkurasining hayotiyliigi, ta'sirchanligi xalq orzu-umidlarini nechog'li to'la va yorqin aks ettirishi, ularni ro'yobga chiqarishning yo'llari va vositalarini qay darajada to'g'ri belgilashga bog'liqdir. Zero, jamiyat a'zolari milliy istiqbol mafkurasida o'z hayotiy manfaatlari, orzu-umidlari ifodasini ko'rsagina odamlarni ruhan bardam, uyg'oq va faol qila oladigan kuchga aylanadi.

G'oyaviy tarbiyalash. Jamiyatdagi mavjud g'oyalarga faol munosabat, faol hayotiy pozitsiyani tarbiyalash mafkuraning yana bir muhim maqsadidir. G'oyaviy tarbiya axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Har qanday axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiya muayyan g'oyani himoya qilish, targ'ib etish va rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Xususan, yovuzlik, behayolik, shafqatsizlikni targ'ib etish orqali yoshlarni axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan badiiy filmlarda jamiyat barqarorligiga raxna solishdan iborat mafkuraviy maqsad yashiringandir. «Ongi shakllanib ulgurmag'an aksariyat yosh tomoshabinlar bunday filmlardan ko'pincha turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizliklarni o'rganadi, xolos. Natijada ularning diydasi qotadi, qalbidan toshbag'irlik, zo'ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olganini o'zi ham sezmay qoladi. Hatto shunday tomosha va filmlarning qahramonlariga ko'r-ko'rona taqlid qilishni talqinlar ta'sirida qo'l urayotgan ishi qanday ayanchli oqibatlariga olib kelishini tushunib etmaydi». Binobarin g'oyalar oshkora yoki yashirin, bevosita yoki bilvosita, to'g'ridan-to'g'ri yoki ramziy shakllarda targ'ib etilishi mumkin. Inson faoliyati aniq bir g'oyaviy maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, bu niyat ko'pincha ko'zga tashlanmaydi, g'oyaviy tarbiyaning asosiy maqsadi kishilarda hushyorlik, sezgirlik hissini shakllantirish, yot va zararli g'oyalarga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir⁴.

G'oyaviy immunitetni shakllantirish. G'oyaviy tarbiya jarayonida kishilarda yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Bu uzoq davom etadigan jarayondir. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil g'oyani zo'r berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oq-qorani

³ Karimov I.A. yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008. B 78-79.

⁴ Karimov I. A. Asarlari to'plami 1- 23 jild. T.: O'zbekiston, 2015. B 122



Date: 9th February-2026

ajratish, zararli g'oyalarga qarshi hushyor va ogoh bo'lish xususiyalarini tarbiyalash demakdir. Manfaatlari bor erda muqarrar ravishda g'arazli, nopok g'oyaviy niyatlarni amalga oshirish uchun intilishlar ham bo'ladi. Yoshlarda rol o'ynaydi. G'oyaviy immunitetni shakllantirish g'oyaviy-tarbiyaviy ish samaradorligining muhim mezonini hisoblanadi. Mafkura jamiyatda ijtimoiy- siyosiy harakatning o'ziga xos dasturilamali bo'lib xizmat qiladi. Chunki u bugungi kun muammolarini hal etish uchun odamlarni jipslashtirish va safarbar etish zaruriyatidan vujudga kelsada, ayni vaqtda uzoq istiqbolni ko'zlaydi. Tarixiy davr o'zgarishi bilan milliy mafkurani yanada takomillashtirish yangi mazmun bilan boyitish zaruriyati vujudga keladi. Milliy mafkura jamiyatdagi barcha sotsial qatlamlar va guruhlarining umumiy harakat dasturi, ularni faollikka da'vat etuvchi vosita hisoblanadi. Mafkuraviy maqsad-g'oyaviy faoliyatni amalga oshirishdan kutiladigan ideal natijadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. Asarlari to'plami 1- 23 jild. T.: O'zbekiston, 2015
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008.
3. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar T.: yangi [asr avlodi](#), 2001.
4. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqacha 5. izohli tajribaviy lug'at).. T.: yangi asr avlodi, 2002.
6. Milliy istiqloq g'oyasi. –T.: Akademiya, 2005.
7. Milliy g'oya nazariy manbalar. Xrestomatiya. T.: «Akademiya», 2007.
8. Falsafa qomusiy lug'at. T. : O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. Sharq. 2004.
9. Shavkat Mirziyoev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birkalikda barpo etamiz." Toshkent "O'zbekiston" 2016 yil. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi
10. Shavkat Mirziyoev "Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini Ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" 2016 yil 7 dekabr
11. Toshkent, "O'zbekiston" 2017 yil. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza, 2016 yil 7 dekabr.
12. Shavkat Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz" Toshkent "O'zbekiston" 2017 y.

